

OILANI MUSTAHKAMLASHDA MAHALLANING O'RNI

yu.f.d., Professor U. Sh. Sharaxmetova

TDYuU "Fuqarolik huquqi" sho'ba'si

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada oilani mustahkamlash jarayonida mahalla institutining o'rni va ahamiyati huquqiy hamda ijtimoiy nuqtai nazardan kompleks tahlil qilinadi. Prezident Shavkat Mirziyoevning 2025 yil 26 dekabrda Oliy Majlis va xalqqa Murojaatnomasida 2026 yilning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilinishi mahalla institutining oilaviy munosabatlarni barqarorlashtirishdagi rolini yanada kuchaytirish zaruratini belgilab berdi. Maqolada mahallaning oilani qo'llab-quvvatlash, oilaviy nizolarning oldini olish, ajrimlarni kamaytirish, bolalar manfaatlarini himoya qilish hamda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirishdagi funksiyalari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Oila kodeksi va mahallaga oid qonun hujjatlari asosida mahallaning huquqiy maqomi va vakolatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda mahallaning sudgacha bo'lgan bosqichda yarashtirish va mediativ mexanizmlarni qo'llash orqali oila barqarorligini ta'minlashdagi amaliy ahamiyati asoslab berilgan. Xulosa sifatida mahalla institutining mustahkam oila va barqaror jamiyatni shakllantirishdagi strategik o'rni ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: oila, mahalla instituti, oilani mustahkamlash, ijtimoiy institut, oilaviy munosabatlar, huquqiy asoslar, mahallaning vakolatlari, yarashtirish komissiyasi, mediasiya, jamiyat barqarorligi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida olib borilmoqda. Ushbu muhim konseptual hujjatning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda Harakatlar strategiyasida boshlangan islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsad qilib qo'yilgan. Taraqqiyot strategiyasining asosiy g'oyasi va bosh mezon sifatida esa inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etish belgilangan bo'lib, bu jamiyatimizning har bir a'zosi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, adolatli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish imkonini beradi¹.

Bugungi globallashuv sharoitida oilaning ijtimoiy institut sifatidagi barqarorligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Oila jamiyatning negizi bo'lib, undagi ijtimoiy muhit, tarbiya va ma'naviy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, oilani mustahkamlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida oilani qo'llab-quvvatlashda mahalla instituti alohida o'rin tutadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2026-yilning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilinishi mahallaning oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, ijtimoiy muammolarni joyida hal etishdagi rolini yanada oshirishga qaratilgan muhim siyosiy qaror sifatida baholanadi².

Mahalla O'zbekistonda tarixan shakllangan, o'ziga xos ijtimoiy boshqaruv instituti bo'lib, u aholining kundalik hayoti, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari va o'zaro ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim vazifani bajaradi. Mahalla va oila o'rtasidagi uzviy aloqadorlik, avvalo, ularning umumiy maqsadi – jamiyat barqarorligini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Mahalla oilaviy muammolarni erta

¹ https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144

² <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

aniqlash, nizoli holatlarning oldini olish, ajrimlar sonini kamaytirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash kabi vazifalarni amalga oshiradi. Bu jarayonda mahalla fuqarolar yig'inlari, xotin-qizlar faollari, nuroniylar va profilaktika inspektorlari hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalla institutining oilani mustahkamlashdagi faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan. Xususan, Konstitutsiyada oila, onalik va bolalik davlat himoyasida ekani belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi oilaviy munosabatlarni tartibga solish orqali oilaning huquqiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.06.2024 yildagi 334-son "Mahallalar faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorida mahalla fuqarolar yig'inlarining aholining ijtimoiy muammolarini hal etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni aniqlash va ularga ko'maklashish vakolatlari belgilangan. Shuningdek, davlat dasturlari doirasida mahalla orqali oilaviy nizolar profilaktikasi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etilib, davlat uni muhofaza qilishi belgilab qo'yilgan. Xususan, Konstitutsiya normalariga muvofiq, nikoh er-xotinning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligi asosida tuzilishi, ota-onalar va bolalar o'rtasida o'zaro huquq va majburiyatlar mavjudligi kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida oilaning mustahkamligi, bolalar manfaatlarining ustuvorligi, oilaviy munosabatlarga tashqi aralashuvga yo'l qo'yilmasligi kabi tamoyillar mustahkamlangan. Mazkur normalarning amaliy ijrosini ta'minlashda mahalla instituti muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Oilaviy huquqlarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli tobora ortib bormoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari, mahalla fuqarolar yig'inlari, xotin-qizlar qo'mitalari va boshqa jamoat birlashmalari oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, oila a'zolarining huquqiy madaniyatini oshirish, nizolarni mediatsiya yo'li bilan hal etish, zarur huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi yo'nalishlarda samarali faoliyat olib boradi.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida oilani mustahkamlashga qaratilgan bir qator asosiy tamoyillar, jumladan, bolalar manfaatlarining ustuvorligi, oilaviy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'yilmasligi, er-xotinning teng huquqliligi kabi normalar mustahkamlangan. Ushbu qoidalarining amaliyotda to'laqonli ijrosini ta'minlashda mahalla institutining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Oila kodeksning 8-moddasiga muvofiq qonun hujjatlarida oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid tegishli normalar bo'lmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari tamoyillariga zid bo'lmagan mahalliy urf-odat va an'analar qo'llanilishi belgilangan.

Buning zahirida, qayinota va qayinonaning er va xotinning munosabatlaridagi kelishmovchilik vaziyatlarni tartibga solish bo'yicha huquq va majburiyatlarga ega. Shu bilan birga, qayinota va qayinonaning layoqati yetmagan taqdirda mahalla institutining aralashuvini keltirib o'tishimiz mumkin. Mahallaning huquqiy maqomi va oilani mustahkamlashdagi vazifalari "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, mahalla fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bo'lib, aholining ijtimoiy faolligini oshirish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish hamda ijtimoiy himoya vazifalarini bajaradi. Qonunchilikka ko'ra, mahallaning faoliyati oilalar manfaatlarini himoya qilish, ularning huquqiy va ma'naviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

Mahalla oilani mustahkamlash sohasida quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi: oilalarda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish, ajrimlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlar olib borish,

ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, voyaga yetmaganlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishda davlat organlari bilan hamkorlik qilish.

Ilmiy va amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy nizolarni sudgacha bo'lgan bosqichda hal etish oilaning saqlanib qolishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda mahalla instituti jamoatchilik ta'siri va ma'naviy-axloqiy mexanizmlar orqali er-xotin o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishda vositachilik vazifasini bajaradi.

Mahalla faollari, oqsoqollar hamda xotin-qizlar bilan ishlash tizimi orqali olib boriladigan profilaktik suhbatlar Oila kodeksida belgilangan oilaning daxlsizligi va bolalar manfaatlarini ta'minlash tamoyillariga mos keladi hamda huquqiy nizolarning oldini olishga xizmat qiladi.

Sudgacha bo'lgan jarayonda ishlarning maqbullashtirish, ya'ni oilaviy munsobatlarning chigallashib ketishi va uning natijasida, sudlov jarayonlari cho'zilishi. Bu holatda, nafaqat taraflarga, balki fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar uchun ham moliyaviy, ham psixologik jihatdan zarar keltirishi mumkin. Bu holatda, alternativ sifatida mediasiya tartibda hal etish institutini rivojlanib boriishini belgilab o'tishimiz mumkin.

Xususan, bugun AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Avstriya, Yaponiya, Xitoy, Gonkong, Koreya, Hindiston, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Gruziya, Ukraina kabi ko'plab mamlakatlarda turli kelishmovchiliklarga ijobiy yechim topishda aynan mediasiya keng qo'llanilmoqda. Jumladan, Angliyada bu usul davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu mamlakatda mediasiyadan oilaviy, fuqarolik, tijorat, transchegaraviy, korporativ, kichik da'volar, voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatga oid nizolarda foydalaniladi. E'tiborlisi, oilaviy nizolarda mediasiya xarajatlari davlat tomonidan qoplanadi. Shuningdek, Avstriyada oilaviy nizolarda bu usul deyarli majburiy o'tkaziladi. Mahalla oilani mustahkamlashda nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va ma'naviy mexanizmlarga ham tayanadi. Jumladan, oilaviy kelishmovchiliklarni sudgacha hal etish, yarashtiruv amaliyotlarini qo'llash, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish orqali mahalla oilaviy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi.

Shu bilan birga, mahalla yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutib, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, zararli illatlarning oldini olish, oilaviy mas'uliyatni oshirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi. Bu esa oilaviy munosabatlarning mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 7 oktyabrdagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida tashkil etilgan Yarashtirish komissiyasi fuqarolarning o'z oilasi va mahallalarda tinch-osoyishta, hamjihatlikda yashashiga ko'maklashish, oilaviy nizolarni tinch yo'l bilan hal etishga yordam bermoqda,

Ayrim hollarda ushbu komissiya faoliyatida kichik kamchilik va xatolar bo'lib turadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Hukumat tomonidan Yarashtirish komissiyalarining faoliyati va natijalari doimiy monitoring qilib boriladi. Raqamlarga murojaat qilsak, joriy yilning o'tgan 6 oyi davomida ushbu komissiyaga oilaviy, qo'ni-qo'shnilar va qarindosh-urug'lar o'rtasidagi kelishmovchiliklar yuzasidan 45 ming 804 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, shundan 27 ming 258 ta oila, 3 mingga yaqin qarindoshlar, 3 ming 453 ta qo'ni-qo'shni murosaga keltirilgan. 6 ming 241 ta xonadon fuqarolar yig'inlari tomonidan doimiy nazoratga olingan.

Qolaversa, ushbu raqamlardan ham ko'rib, bilish mumkinki, ko'plab fuqarolar oilasidagi nizolarni bartaraf etish uchun FHDYo, sud kabi davlat idoralariga emas, balki fuqarolar yig'ini qoshidagi Yarashtirish komissiyalariga murojaat qilmoqda. Bu esa ularning ushbu komissiyaga bo'lgan ishonchidan dalolat.

Mahalla instituti oilani mustahkamlashda huquqiy mexanizmlar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy funksiyani ham amalga oshiradi. Nikohga kirish arafasidagi yoshlar bilan olib boriladigan ma'rifiy ishlar, ota-onalik mas'uliyatini oshirishga qaratilgan tadbirlar, oilaviy huquq va majburiyatlar bo'yicha huquqiy targ'ibot ishlari oilaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, mahallaning ta'lim, sog'liqni saqlash va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o'zaro hamkorligi oilalar muammolarini kompleks hal etish imkonini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 87-moddasiga muvofiq bolaning hayotiga yoki uning sog'lig'iga bevosita xavf tug'ilganda vasiylik va homiylik organi bolani ota-onadan (ularning biridan) yoki bolani o'z qaramog'iga olgan boshqa shaxslardan zudlik bilan olib qo'yishga haqlidir, deb ko'rsatilgan. Fikrimizcha, notinch oilalardan bolalarni olib qo'yishga doir amaliyot ayniqsa, odatdagi turmush tarzi bilan yashovchi oilalardan bolalarni olib qo'yish haqida chuqur o'ylab keyin ish ko'rmoq lozim.

Garchi yuvenal yustisiya bola huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lsada, uning ta'siri ostida qonun ustuvorligi, inson huquq va manfaatlar, davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bugungi kunda Yevropada sinovdan o'tkazilayotgan bolalarni oilalardan "holat aniqlangunga qadar", masalan bolaga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lganlikka doir anonim xabarlar asosida sudning qarorisiz 25 kundan bir necha oyga qadar olib qo'yish mexanizmi shaxsiy nomulkiy huquqlar cheklanishiga olib kelayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu borada bizning o'zimizga xos bo'lgan mahalla institutining o'rni va ro'ldan o'rinli foydalanishimiz lozim. Jumladan, mahalladagi benuqson obro' e'tiborga ega bo'lgan, ma'naviy sog'lom, barchaning hurmat e'tiborida bo'lgan mahalla a'zosi, oqsoqoli bolani vaqtincha kimda bo'lishi masalasini hal qilishda (vasiylik va homiylik organida, sud jarayonida) qatnashishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, oilani jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatidagi statusi va maqomini belgilash, oilalar barqarorligini ta'minlashga oid huquqiy choralar va mexanizmlarni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Oilani qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Qonunini qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Aytish lozimki, AQShda 1988 yilda "Oilani qo'llab-quvvatlash akti" qabul qilingan bo'lib, unda bolalarni qo'llab-quvvatlash, oilalarni ish bilan ta'minlash va ularni moddiy qo'llab-quvvatlash, ularning muammolarini yechishga qaratilgan ijtimoiy xizmatlar keltirilgan. Bir qator davlatlarda esa oilalarning moddiy holatidan kelib chiqib soliq va kommunal to'lovlar bo'yicha imtiyozlar nazarda tutilgan (Yaponiya, Koreya).

O'zbekiston Respublikasining "Oilani qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Qonunini qabul qilish mamlakatimizda oilalar barqarorligini ta'minlash, ajralishlar sonini kamaytirish hamda jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida oilalarning ijtimoiy va huquqiy maqomini aniqlashtirish kabi ijtimoiy, tashkiliy va huquqiy vazifalarni bajaradi.